

Magistrlik dissertatsiyasi titul varag'ining orqa tomoni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Magistrlik dissertatsiya ishi
" Moliya " kafedrasida dastlabki himoyad
o'tgan.

3 - sonli bayonnoma " 19 " aprel 2023 y.

Kafedra mudiri : X.Xudoyqulov

imzo

sana

Ilmiy rahbar: S.Abrorov

imzo

sana

Talaba: Sh.G'iyosov

imzo

sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida

2023 yil " 17 " may

No MBF-01/4 raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTASIYA

Mamlakatimiz moliya tizimida tijorat banklari faoliyatini kengroq amalga oshishi iqtisodiyotning barcha jabhalarida sezilarli yutuqlar olib kelishi mumkin. Chunki yuridik va jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun banklar tomonidan imtiyozli kreditlar berilishi, o'zaro hisob kitoblarda bank operatsiyalari orqali o'z xizmatlari bilan ishlarni ancha osonlashtirmoqda.

Tijorat banklari muhim moliyaviy institut sifatida bo'sh pul mablag'larini ma'lum shartlar asosida jalb qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, aholi daromadlarini oshirish kabilarda muhim ahamiyat kasb etishi aksariyatimizga ma'lum. Bunda tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyatining samarali tashkil etilganligi yuqori keltirilgan jihatlarning to'liq ishlashi muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan avvalo tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati nazariy jihatlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Mamlakat moliya tizimida banklarning faoliyati ortib bormoqda bu yesa o'z navbatida banklarda bajarilayotgan operatsiyalar sifati va tezligining yuqori ko'rsatkichlarga yerishayotganligidadir. Bizga ma'lumki yillar davomida banklar soni va ko'rsatadigan xizmatlari soni ortib bormoqda. Iqtisodiyotning raqobardoshligi qancha yuqori bo'lsa yaratilayotgan ish va xizmatlar bahosi va sifati xalq uchun shuncha yaxshi bo'ladi.

Ma'lumki banklar soni hozirda o'tgan yilga nisbatan ko'p bundan kelib chiqib banklar o'rtasidagi raqobat natijasida banklar faoliyati o'z-o'zidan yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi, lekin baribir xorij amaliyotini oladigan bo'lsak banklarda olib boriladigan operatsiyalar soni 500 dan ortiq bizda yesa bu operatsiyalarning 100 ga yaqin xizmat turlaridan foydalanilmoqda xolos. Buning asosiy sababi yesa mamlakatimiz aholisi pul mablag'larini banklarda saqlashga qo'rqishi ularning banklarga yetarli darajada ishonmasligidir natijada o'lik pullar massasi oshadi. Agar aholi banklarga ishonib o'z omonatlarini qo'ysa ular ham mamlakatda va umuman iqtisodiyotda bo'layotgan inflyatsiyani o'zlari ko'rib

baholay bilsa banklarga bo'lgan ishonchi oshishi mumkin.

Kalit so'zlar: *moliya, bank, bank aktivlari, bank krediti, bank resurslari, depozitlar, kapital, risk, rentabellik, kompleks baholash, muammoli kreditlar, qimmatli qog'ozlar.*

ANNOTATION

Wider implementation of the activities of commercial banks in the financial system of our country can bring significant progress in all aspects of the economy. Because the banks provide preferential loans to legal and natural persons to carry out business activities, they make things much easier with their services through bank transactions in mutual account books.

Most of us know that commercial banks, as an important financial institution, play an important role in financing economic sectors by attracting free funds under certain conditions, making mutual settlements between entities, and increasing the income of the population. In this case, the effective organization of the activities of commercial banks in the financial market and the full functioning of the above-mentioned aspects are important. From this point of view, we will first dwell on the theoretical aspects of the activity of commercial banks in the financial market.

The activity of banks in the country's financial system is increasing, and this is due to the fact that the quality and speed of operations performed in banks are reaching high indicators. As we know, the number of banks and the number of services they provide are increasing over the years. The higher the competitiveness of the economy, the better the price and quality of the work and services created for the people will be.

It is known that the number of banks is now more than last year. Based on this, it indicates that the activity of banks is improving by itself as a result of the competition between banks, but still, if we take the foreign practice, the number of transactions carried out in banks is more than 500, and in our country, only about 100 types of services are used. . The main reason for this is that the people of our country are afraid to keep their money in banks, and they do not trust them enough, as a result, the mass of dead money increases.

MUNDARIJA

ANNOTASIYA	3
Mundarija	7
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	9
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	10
Keltirilgan qisqartmalar.....	11
I BOB. KIRISH	12
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	13
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	14
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	15
1.4. Tadqiqot ob’ekti va predmeti.....	16
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	16
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	16
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	18
2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari.....	18
2.2. Tadqiqot gipotezasi.....	28
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	29
3.1. Tadqiqot dizayni.....	29
3.2. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	29
3.3. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	30
3.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	30
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi...	30
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	31
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	32
4.1. Respublikamiz tijorat banklarida aktiv operatsiyalarning tahlili.....	32
4.2. Mamlakatimiz tijorat banklari passivlarining tahlili.....	43
4.3. Tijorat banklarning moliya bozoridagi faoliyati tahlili.....	57
V BOB. XULOSA	64
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	64
5.2. Tadqiqot natijalariga asoslangan asosiy taklif va tavsiyalar.....	67

5.3.	Fan va bilimni oshishiga qo‘shilgan hissa.....	69
5.4.	Tadqiqot qamrovi chegaralari.....	69
5.5.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	69
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	71

I BOB. KIRISH

Jahonda globallashuv sharoitida tizimi barqarorligini ta'minlash, mamlakat moliya-bank tizimida banklarning rolini oshirish, tijorat banklari likvidligini ta'minlash va uning me'yorlarini aniqlash metodologiyasi bilan bog'liq dolzarb masalalar yuzaga chiqmoqda. Xalqaro bank amaliyotidan ma'lumki, uning ortiqchaligi ham, taqchilligi ham banklar uchun muammo hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bank tizimidagi bir qancha muammoli masalalarni hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining roli juda muhimligi e'tirof etildi. (Mirziyoyev Sh.M. 2017)

Jahon mamlakatlari Markaziy banklari, zaxira tizimlari, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va xalqaro Bazil qo'mitasi tijorat banklari likvidligini tartibga solish bo'yicha bir qator talablar, me'yorlar va tamoyillarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirgan. Xususan, ularda tijorat banklari likvidlik riskini kamaytirish, likvidlikni tartibga solish va me'yorlarini aniqlash mexanizmlari yaratilgan. Biroq, globallashuv sharoitida yuqori likvidli va barqaror mablag'lar bilan ta'minlash kabi masalalar bugungi kungacha yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan hamda uni aniqlash bo'yicha aniq me'yoriy qo'llanmalar yaratilmagan. Xususan, riskli aktivlar va muddatli mablag'lar o'rtasida nomutanosiblik, likvid mablag'larga bo'lgan talabni zudlikda qondirish imkoniyatlarining chegaralanganligi, likvidlikni aniqlashda zamonaviy metodlardan foydalanmasligi kabi dolzarb masalalar ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakat moliya tizimida banklar ro'lini oshirish bilan bir qator muommolar ham bor albatta. Albatta rivojlanish bilan bir qatorda oldimizda shu o'zgarishlar natijalarida bir qancha muammoli jihatlar ham paydo bo'lmoqda. Buni biz nazariy va amaliy jihatdan ham ko'rib o'tmoqdamiz. Bank xizmatlari uning tadbirkorligini, daromadligini ta'minlashga va iqtisodiyotning talablarini qondirishga yo'naltirilgan an'anaviy sohasi bo'lib hisoblanadi.